ISNN 3030-3907

2026
MAY
ISSUE - 5
VOLUME - 2

DEVELOPMENT OF SCIENCE

scientific journal



Development of science

Ilmiy jurnal

MAY 2026
Issue - 5, VOLUME - 2

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

POCHTA XIZMATLARINI RAQOBATDOSHLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI (O‘ZBEKISTON POCHTASI AJ MISOLIDA)

Xudoyberdiyev Rahmatillo Fozilliddinovich
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Raqamli texnologiyalar konvergensiyasi kafedrasi dotsenti
E-mail: rfxudoyberdiyev24@gmail.com,
Tel: (33)7082424
Jo‘rayev Lazizjon Norovich
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Tashkiliy nazorat boshqarmasi boshlig‘i
Samadov Jahongir Bahodir o‘g‘li
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti talabasi
Yuldasheva Charosxon Jasur qizi
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti talabasi
Amonqulova Mahliyo Murodullo qizi
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston pochtasi AJ faoliyati misolida pochta xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish masalalari tahlil qilinadi. Avvalo, sohada mavjud muammolar va ularning xizmat sifati hamda samaradorlikka ta’siri ko‘rib chiqiladi. Zamonaviy logistika tizimlari va raqamlashtirish jarayonlarini joriy etish zarurati asoslab beriladi. Bundan tashqari, xalqaro tajribalar bilan solishtirish orqali pochta xizmatlarini modernizatsiya qilish yo‘nalishlari aniqlanadi. Elektron tijoratning rivojlanishi natijasida pochta xizmatlariga bo‘lgan talab ortib borayotgani ta’kidlanadi. Natijada, samarali boshqaruv va marketing strategiyalarini qo‘llash muhim omil sifatida e’tirof etiladi. Pochta xizmatlari raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Logistika tizimlari, raqamlashtirish, elektron tijorat, innovatsiyalar, marketing strategiyalari, boshqaruv samaradorligi, modernizatsiya.

Аннотация. В данной статье на примере деятельности АО «Узбекистон почтаси» анализируются вопросы повышения конкурентоспособности почтовых услуг. Прежде всего рассматриваются существующие проблемы в отрасли и их влияние на качество обслуживания и эффективность. Обосновывается необходимость внедрения современных логистических систем и процессов цифровизации. Кроме того, на основе сопоставления с международным опытом определяются направления модернизации

почтовых услуг. Подчеркивается рост спроса на почтовые услуги в результате развития электронной коммерции. В результате отмечается, что применение эффективных управленческих и маркетинговых стратегий является важным фактором. Разработаны практические предложения и рекомендации, направленные на повышение конкурентоспособности почтовых услуг.

Ключевые слова: логистические системы, цифровизация, электронная коммерция, инновации, маркетинговые стратегии, эффективность управления, модернизация.

Abstract. This article analyzes the issues of improving the competitiveness of postal services based on the example of the activities of O‘zbekiston pochtasi AJ. First, the existing problems in the sector and their impact on service quality and efficiency are examined. The necessity of implementing modern logistics systems and digitalization processes is substantiated. In addition, the directions for modernization of postal services are identified through comparison with international experience. It is emphasized that the demand for postal services is increasing due to the development of e-commerce. As a result, the application of effective management and marketing strategies is recognized as an important factor. Practical proposals and recommendations aimed at increasing the competitiveness of postal services are developed.

Keywords: logistics systems, digitalization, e-commerce, innovations, marketing strategies, management efficiency, modernization.

KIRISH.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pochta aloqasi xizmatlarini ko‘rsatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 14-dekabrdagi PQ–4921-son qarori sohaga oid islohotlarning huquqiy asosi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Pochta aloqasi tizimi har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmasida muhim o‘rin egallaydi, chunki u aholi va biznes subyektlari o‘rtasidagi axborot va tovar almashinuvini ta’minlaydi. Pochta xizmatlarini raqamlashtirish, logistika tizimini takomillashtirish va yangi xizmat turlarini joriy etish orqali tizimni tubdan yangilash bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Bu jarayonlarda “O‘zbekiston pochtasi” AJning faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u mamlakatdagi asosiy milliy pochta operatori hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida esa pochta xizmatlari nafaqat an’anaviy xat va jo‘natmalar yetkazib berish bilan cheklanib qolmay, balki elektron tijorat, moliyaviy xizmatlar va davlat xizmatlari bilan integratsiyalashib bormoqda. Global bozorda kuryerlik va logistika kompaniyalari o‘rtasidagi raqobatning kuchayishi milliy operatorlardan yuqori samaradorlikni talab

ISSN 3030-3907

qilmoqda. O‘zbekistonda ham elektron tijorat hajmining ortib borishi pochta xizmatlariga bo‘lgan talabni keskin oshirdi. Bu mavjud infratuzilmani takomillashtirish va xizmat sifatini yangi bosqichga olib chiqishni taqozo etadi.

“O‘zbekiston pochtasi” AJ tomonidan amalga oshirilayotgan transformatsiya jarayonlari alohida e’tiborga loyiqdir. Xizmatlarni avtomatlashtirish, mobil ilovalar joriy etish va to‘lov tizimlarini rivojlantirish orqali aholiga qulayliklar yaratildi. Chekka hududlarda bank va davlat xizmatlarini yo‘lga qo‘yilishi pochta tizimining ijtimoiy ahamiyatini yanada oshirdi. Logistika markazlarining tashkil etilishi esa elektron tijoratni rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Biroq amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramay, sohada hali ham bir qator muammolar va yechimini kutayotgan masalalar mavjud. Xizmatlar sifati, yetkazib berish tezligi va mijozlarga xizmat ko‘rsatish darajasini yanada oshirish zarurati saqlanib qolmoqda.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali pochta xizmatlarining samaradorligini oshirish imkoniyati mavjud. Bu borada innovatsion yondashuvlar va ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mijozlar ehtiyojlarini chuqur tahlil qilish va ularga mos xizmatlarni taklif etish ham muhim omillardan biridir. Kadrlar malakasini oshirish va xizmat ko‘rsatish madaniyatini rivojlantirish ham raqobatbardoshlikni belgilovchi asosiy jihatlardan hisoblanadi. Brend imijini mustahkamlash va mijozlar ishonchini oshirish orqali xizmatlarga bo‘lgan talabni kengaytirish mumkin. “O‘zbekiston pochtasi” AJ faoliyatini chuqur tahlil qilish va uning raqobatbardoshligini oshirish yo‘llarini aniqlash dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi[1,2].

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Pochta aloqasi korxonalariga joriy qilinadigan raqamli texnologiyalar bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, ushbu bo‘limda mavzuga oid asosiy adabiyotlar tahlil qilinadi. Xususan, Jang va boshqalar o‘z tadqiqotlarida pochta xizmatlarini raqamlashtirish jarayonini o‘rganib, uning asosiy yo‘nalishlarini aniqlashgan [3]. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar tahlili va bulutli texnologiyalar pochta xizmatlarini modernizatsiya qilishda eng istiqbolli yo‘nalishlar sifatida e’tirof etilgan.

Mazkur yo‘nalishni davom ettirgan holda, Liva Xou pochta aloqasi sohasida raqamli transformatsiyaning ahamiyatini tahlil qilib, raqamli texnologiyalarni joriy etish korxonalarning raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshirishini hamda yangi xizmat turlarini yaratish imkonini berishini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, Smirnov o‘z ishida ushbu jarayonni amalga oshirishda yuzaga keladigan asosiy muammolar va qiyinchiliklarni ko‘rib chiqib, xodimlarni qayta

ISSN 3030-3907


o‘qitish, ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash va katta hajmdagi investitsiyalar zarurligiga alohida e’tibor qaratadi.

Andersen va boshqalar pochta xizmatlarini raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorligini baholab, raqamli texnologiyalarni joriy etish natijasida operatsion xarajatlar o‘rtacha 15-20% ga kamayishi, xizmat ko‘rsatish tezligi esa 30-40% ga oshishini aniqlashgan. Shu bilan bir qatorda, Yoshida IoT texnologiyalarining pochta aloqasi sohasida qo‘llanilishini o‘rganib, ushbu qurilmalar jo‘natmalarni kuzatish, saqlash sharoitlarini nazorat qilish va logistika jarayonlarini optimallashtirishda muhim ahamiyat kasb etishini qayd etadi.

Chen va boshqalar sun’iy intellekt texnologiyalarining pochta xizmatlaridagi rolini tahlil qilib, uning manzillarni aniqlash, jo‘natmalarni saralash hamda mijozlarga xizmat ko‘rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish imkoniyatlarini ochib berishgan. Nihoyat, Kumar va Sharma blokcheyn texnologiyasining pochta korxonalarida qo‘llanilish istiqbollarini o‘rganib, uning jo‘natmalar xavfsizligini ta’minlash va tranzaksiyalar shaffofligini oshirishdagi muhim o‘rnini ta’kidlaydi [4].

METODOLOGIYA.

Mazkur tadqiqotda pochta xizmatlari raqobatbardoshligini baholash va uni oshirish yo‘llarini aniqlash maqsadida kompleks yondashuvdan foydalanilgan bo‘lib, tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan asosiy ilmiy usullar o‘zaro uyg‘unlikda tizimlashtirilgan holda 1-rasmda sxematik tarzda ifodalangan.



1-rasm. Pochta xizmatlari raqobatbardoshligini tadqiq etish metodologiyasi sxemasi

Tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta’minlash maqsadida turli manbalardan olingan ma’lumotlar o‘zaro solishtirildi va umumlashtirildi.

ISSN 3030-3907

Qo‘llanilgan metodlar pochta xizmatlarini modernizatsiya qilish va ularning samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqish imkonini berdi.

Mazkur metodologik yondashuvlar asosida olingan natijalar keyingi bosqichda tizimli ravishda tahlil qilindi hamda umumlashtirildi. Bunda har bir qo‘llanilgan usuldan olingan empirik va analitik ma’lumotlar o‘zaro integratsiya qilinib, pochta xizmatlari raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillar kompleks tarzda aniqlab chiqildi [5].

Tahlil jarayonida, avvalo, logistika infratuzilmasi samaradorligi, raqamlashtirish darajasi hamda mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifati kabi omillar eng muhim determinantlar sifatida ajralib chiqdi. Shu bilan birga, elektron tijoratning jadal rivojlanishi sharoitida pochta-logistika tizimiga bo‘lgan talablarning ortib borayotgani ham yaqqol kuzatildi, bu esa mavjud infratuzilmani modernizatsiya qilish zaruratini yanada dolzarb qilib qo‘ymoqda.

Keyingi bosqichda SWOT-tahlil natijalari asosida ichki va tashqi muhit omillari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va muvozanat baholandi. Natijada, “O‘zbekiston pochtasi” AJ faoliyatining kuchli va zaif tomonlari, shuningdek, mavjud imkoniyatlar va tahdidlar tizimli ravishda aniqlanib, ularning raqobatbardoshlikka ta’siri tahlil qilindi [6].

Ushbu tahlillar asosida pochta xizmatlari amaradorligini oshirish va ularning raqobatbardoshligini kuchaytirishga qaratilgan strategik yo‘nalishlar shakllantirildi. Xususan, raqamli transformatsiyani jadallashtirish, avtomatlashtirilgan logistika tizimlarini keng joriy etish hamda xizmatlar sifatini doimiy ravishda oshirish ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilandi.

Qo‘llanilgan kompleks metodologiya tadqiqotning ilmiy asoslanganligini ta’minlab, “O‘zbekiston pochtasi” AJ faoliyatini takomillashtirish va uning raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqish imkonini berdi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Tadqiqot jarayonida “O‘zbekiston pochtasi” AJ faoliyatining ichki va tashqi omillarini kompleks baholash maqsadida SWOT-tahlil usulidan foydalanildi. Mazkur tahlil korxonaning kuchli va zaif tomonlarini, shuningdek, mavjud imkoniyatlar va tahdidlarni aniqlash imkonini beradi.

SWOT tahlil: “O‘zbekiston pochtasi” AJ faoliyati

1. Kuchli tomonlar:

- Respublika bo‘ylab keng qamrovli pochta-logistika infratuzilmasining mavjudligi (1646 ta bo‘limlar va keng yetkazib berish tarmog‘i).
- Chekka va qishloq hududlarda xizmat ko‘rsatish imkoniyati (raqobatchilarga nisbatan ustunlik).

ISSN 3030-3907

– Milliy pochta operatori sifatida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi.
– Xizmatlar portfelining kengligi (pochta, kuryerlik, moliyaviy va ijtimoiy xizmatlar).
– Elektron tijorat bozorining o‘sishi natijasida tabiiy talabning ortib borishi.
– Xalqaro pochta tizimiga integratsiyalashganlik.

2. Zaif tomonlar:

– Logistika jarayonlarining to‘liq avtomatlashtirilmaganligi va eskirgan texnologiyalar mavjudligi.
– Yetkazib berish tezligi va xizmat sifati bo‘yicha ayrim kamchiliklar.
– Mijozlar uchun real vaqt kuzatuv tizimlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi.
– Mavsumiy yuklamalarga moslashuvchanlikning pastligi.
– Xodimlar malakasi va xizmat ko‘rsatish madaniyatida notekisliklar.
– Raqamli xizmatlar va mobil platformalarning to‘liq integratsiya qilinmaganligi.

3. Imkoniyatlar:

– Elektron tijorat bozorining jadal o‘sishi va posilka oqimining ko‘payishi.
– Sun’iy intellekt, IoT va Big Data texnologiyalarini joriy etish orqali logistika samaradorligini oshirish.
– Xalqaro logistika zanjirlariga chuqurroq integratsiyalashuv imkoniyati.
– Davlat dasturlari (“Raqamli O‘zbekiston–2030”) doirasida raqamlashtirishni jadallashtirish.
– Pochtamatlar va “so‘nggi milya” yechimlarini kengaytirish.
– Elektron to‘lovlar va moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish orqali qo‘shimcha daromad manbalarini yaratish.

4. Tahdidlar:

– Xususiy kuryerlik va logistika kompaniyalari tomonidan kuchayib borayotgan raqobat.
– Tezkor yetkazib berish bo‘yicha mijozlar talabining ortishi.
– Texnologik ortda qolish xavfi.
– Logistika xarajatlarining oshishi.
– Kiberxavfsizlik tahdidlari va ma’lumotlar himoyasi bilan bog‘liq risklar.
– Global ta’minot zanjiridagi uzilishlar.

SWOT tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, “O‘zbekiston pochtasi” AJ keng infratuzilma va davlat qo‘llovi kabi kuchli tomonlarga ega bo‘lsa-da, logistika jarayonlarining yetarli darajada avtomatlashtirilmaganligi va xizmat sifatidagi ayrim kamchiliklar uning raqobatbardoshligini cheklab qo‘ymoqda. Shu bilan birga, elektron tijoratning jadal rivojlanishi hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlari kompaniya uchun muhim strategik ustunliklar yaratadi. Biroq

ISSN 3030-3907

xususiy sektor raqobatining kuchayishi va mijozlar talabining oshishi sharoitida ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish zarur hisoblanadi.

Kompaniyaning bozordagi o‘rnini uning raqobatchilariga nisbatan aniqlash uchun bozor ulushi ko‘rsatkichi hisoblanadi [7]. Mazkur ko‘rsatkich kompaniya savdo (yoki daromad) hajmining bozorning umumiy hajmiga nisbatan foizdagi ulushi sifatida aniqlanadi hamda raqobatbardoshlik darajasini ifodalovchi muhim indikator hisoblanadi (1-jadval).

1-jadval.

Korxonalar bozor ulushini hisoblash uchun boshlang‘ich ma’lumotlar (daromad)

Korxona	Daromad, mlrd so‘m			Bozor ulushi, %		
	2023 yil	2024 yil	2025 yil	2023 yil	2024 yil	2025 yil
O‘zbekiston pochtasi AJ	385,56	604,45	797,67	81,1%	81,6%	78,8%
“Express mail universal” MCHJ	37,25	58,27	66,15	7,8%	7,9%	6,5%
«BTS Express Cargo Servis» MCHJ	52,69	78,39	148,67	11,1%	10,6%	14,7%

Jadval ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, “O‘zbekiston pochtasi” AJ daromad hajmi bo‘yicha mutlaq yetakchilikni saqlab qolgan bo‘lib, 2023–2025 yillar davomida uning daromadi izchil o‘sib, 385,56 mlrd so‘mdan 797,67 mlrd so‘mga yetgan. Shu bilan birga, bozor ulushi yuqori darajada saqlanib qolgan bo‘lsa-da, 2025 yilga kelib 78,8 foizgacha biroz pasayish kuzatilgan.

“BTS Express Cargo Servis” MCHJ daromad hajmi bo‘yicha eng yuqori o‘sish sur’atlarini namoyon etgan bo‘lib, uning daromadi uch yil davomida deyarli uch barobarga oshgan. Bu holat kompaniyaning bozor ulushining 10,6 foizdan 14,7 foizgacha oshishiga olib kelgan va uning raqobatbardoshligi ortib borayotganini ko‘rsatadi.

“Express Mail Universal” MCHJ faoliyatida esa daromadning o‘sishi kuzatilgan bo‘lsa-da, bozor ulushining 7,9 foizdan 6,5 foizgacha pasayishi kompaniyaning raqobat pozitsiyasi nisbatan zaiflashayotganini anglatadi [8,9].

Umuman olganda, tahlil natijalari pochta-logistika xizmatlari bozorida raqobatning kuchayib borayotganini va ayniqsa xususiy kompaniyalar tomonidan bozor ulushi uchun faol kurash olib borilayotganini ko‘rsatadi.

ISSN 3030-3907

Keyingi bosqichda “O‘zbekiston pochtasi” tomonidan ko‘rsatilayotgan asosiy va qo‘shimcha xizmat turlarini ko‘rib chiqamiz (2-jadval).

2-jadval.

“O‘zbekiston pochtasi” AJ tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar turlari

№	Faoliyat turlari
1	**Asosiy faoliyat turlari**
1.1	**An’anaviy pochta xizmatlari**
1.1.1	Oddiy xatlar
1.1.2	Oddiy pochta kartochkalari
1.1.3	Oddiy banderollar
1.1.4	Buyurtma xatlar
1.1.5	Buyurtma pochta jo‘natmalari
1.1.6	E’lon qilingan qiymatli jo‘natmalar
1.2	**Milliy yetkazib berish xizmatlari**
1.2.1	“Bir qadam” tezkor yetkazib berish xizmati
1.2.2	Kuryerlik xizmati
1.2.3	Posilkalarni yetkazib berish
1.3	**Xalqaro pochta xizmatlari**
1.3.1	Xalqaro pochta jo‘natmalari
1.3.2	EMS (xalqaro tezkor pochta)
1.4	**Gibrid va raqamli xizmatlar**
1.4.1	Gibrid pochta xizmati
1.4.2	Elektron shaklda qabul qilish va yetkazib berish xizmatlari
1.5	**Moliyaviy va ijtimoiy xizmatlar**
1.5.1	Pochta pul o‘tkazmalari
1.5.2	To‘lovlarni qabul qilish
1.5.3	Ijtimoiy to‘lovlarni yetkazib berish
1.6	**Matbuot va qo‘shimcha xizmatlar**
1.6.1	Gazeta va jurnallarga obuna va yetkazib berish
1.6.2	Hisob-kitob hujjatlarini yetkazib berish

“O‘zbekiston pochtasi” AJ – milliy pochta operatori bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining strategik ahamiyatga ega korxonalari ro‘yxatiga kiritilgan. “O‘zbekiston pochtasi” AJning raqobatbardoshligi nafaqat moliyaviy ko‘rsatkichlar, balki uning infratuzilma salohiyati bilan ham belgilanadi. Kompaniya respublika bo‘ylab keng tarmoqli pochta-logistika tizimiga ega bo‘lib, bu uning xizmatlarning mavjudligi va qamrov darajasi bo‘yicha muhim ustunliklarini ta’minlaydi.

ISSN 3030-3907

Xususan, kompaniya tarkibida 14 ta hududiy filial, 15 ta tumanlararo hamda 148 ta tuman pochta aloqasi bog‘lamalari faoliyat yuritadi. Shuningdek, 1602 ta pochta aloqasi bo‘limi orqali aholiga xizmat ko‘rsatiladi. Yetkazib berish infratuzilmasi shahar hududlarida 1393 ta, qishloq joylarda esa 2123 ta yetkazib berish uchastkalarini o‘z ichiga oladi [10,11].

Transport-logistika imkoniyatlari nuqtai nazaridan kompaniya 25 ta havo yo‘nalishi va 300 dan ortiq avtomobil yo‘nalishlari orqali jo‘natmalarni yetkazib berishni tashkil etadi. Kadrlar salohiyati ham muhim omil bo‘lib, korxonada 7 mingdan ortiq xodim, jumladan 2580 dan ortiq pochtachilar faoliyat yuritadi.

Mazkur infratuzilma va resurs salohiyati “O‘zbekiston pochtasi” AJga, ayniqsa, qishloq va chekka hududlarda xizmat ko‘rsatishda raqobatchilarga nisbatan muhim ustunlik beradi hamda uning bozorni keng qamrab olish imkoniyatlarini oshiradi.

Jamiyat faoliyatining asosiy maqsadi pochta aloqasi xizmatlarini samarali tashkil etish, tarmoq infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali xizmatlar sifatini oshirishdan iborat. Shu bilan birga, kompaniya milliy pochta tizimini xalqaro pochta tarmog‘iga integratsiyalash, investitsiyalarni jalb etish va xizmatlar ko‘lamini kengaytirishga yo‘naltirilgan faoliyatni amalga oshiradi.

Jamiyat faoliyatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat bo‘lib, ular milliy pochta tizimining barqaror ishlashi va rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan:

– *Respublika hududi bo‘ylab universal pochta xizmatlarini ko‘rsatish va aholining ehtiyojlarini qondirish.* Ushbu yo‘nalish jamiyatning asosiy ijtimoiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Universal pochta xizmatlari mamlakatning barcha hududlarida, jumladan chekka va olis hududlarda ham pochta xizmatlaridan teng foydalanish imkoniyatini yaratadi. Bu esa aholi va tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida axborot va tovarlar almashinuvining uzluksizligini ta’minlaydi.

– *Pochta aloqasi sohasini bozor tamoyillari asosida rivojlantirish hamda xizmatlar turlarini kengaytirish.* Raqobat muhitining shakllanishi sharoitida jamiyat xizmatlar portfelini diversifikatsiya qilish, yangi logistika va kuryerlik xizmatlarini joriy etish, elektron tijorat bilan integratsiyani kuchaytirish orqali bozor ulushini kengaytirishga intiladi. Bu esa daromad manbalarini ko‘paytirish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

– *Xalqaro pochta almashinuvini tashkil etish va Umumjahon pochta ittifoqi talablariga rioya etish.* Mazkur yo‘nalish global logistika tizimiga integratsiyalashuvni ta’minlaydi. Xalqaro standartlarga mos faoliyat yuritish orqali jo‘natmalarni tezkor va ishonchli yetkazib berish, bojxona jarayonlarini

ISSN 3030-3907

optimallashtirish hamda xorijiy hamkorlar bilan samarali aloqalarni yo‘lga qo‘yish imkoniyati yaratiladi.

– *Pochta jo‘natmalarining xavfsizligi va yozishmalar maxfiyligini ta’minlash.* Xizmatlar sifatining muhim komponenti sifatida xavfsizlik masalasi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy texnologiyalar asosida jo‘natmalarni kuzatish (tracking), identifikatsiya qilish va himoyalash tizimlarini joriy etish orqali mijozlarning ishonchi mustahkamlanadi hamda xizmatlardan foydalanish darajasi oshadi.

– *Xizmatlar sifatini oshirishda axborot texnologiyalarini keng joriy etish.* Raqamlashtirish jarayonlari doirasida avtomatlashtirilgan saralash markazlari, mobil ilovalar, onlayn buyurtma va kuzatuv tizimlari joriy etilmoqda. Bu esa operatsion samaradorlikni oshirish, inson omilini kamaytirish va xizmat ko‘rsatish tezligini sezilarli darajada yaxshilash imkonini beradi.

– *Marketing tadqiqotlari asosida raqobatbardoshlikni oshirish.* Bozor kon’yunkturasini chuqur o‘rganish, mijozlar ehtiyojlarini tahlil qilish va segmentatsiya asosida yangi xizmatlarni ishlab chiqish jamiyatning strategik ustunliklarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, brendni rivojlantirish va mijozlarga yo‘naltirilgan yondashuvni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida keltirilgan yo‘nalishlar “O‘zbekiston pochtasi” AJning bozordagi barqaror faoliyatini ta’minlash, xizmatlar sifatini xalqaro darajaga olib chiqish hamda raqobat ustunliklarini shakllantirishda muhim strategik asos bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur yondashuv jamiyatning uzoq muddatli rivojlanish istiqbollarini belgilashda ham hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Moslashuvchanlikning pastligi mavsumiy yuklamalarga moslasha olmaydi. Eski pochta tizimlari elektron savdoning keskin o‘sishiga tayyor emas. Yuqori talab davrida kechikishlar va tizim nosozliklari yuzaga keladi. Mijozlar tajribasining pastligi zamonaviy kuzatuv platformalarining yetishmasligidan kelib chiqadi. Mijozlar tez va shaffof yetkazib berishni kutadi. Avtomatik bildirishnomalar yo‘qligi posilka holati haqida aniq ma’lumotga ega bo‘lishni qiyinlashtiradi. Kechikishlar va yo‘qotilgan jo‘natmalar ishonchni kamaytiradi. Ushbu muammolar operatsion xarajatlarning oshishiga olib keladi. Tezkor javob berish qobiliyati pasayadi. Bozor tezkorlikni talab qilayotgan paytda pochta operatorlari ko‘proq sarflab kamroq natijaga erishadi. Eski texnologiyalardan voz kechish oddiy IT yangilanish emas. Tizimlarni modernizatsiya qilish xarajatlar oshishi muammosidan chiqish uchun zarurdir. Bu sun’iy intellekt va bulut texnologiyalariga o‘tish uchun zamin yaratadi. Yuqori hajmdagi posilkalar sharoitida samarali yetkazib berish yo‘nalishlari muhimdir. Sun’iy intellekt

ISSN 3030-3907

asosidagi marshrut optimallashtirish real vaqt rejimida ishlaydi. Tirbandlik posilkalar joylashuvi va yetkazib berish cheklovlarini tahlil qiladi. Haydovchilar uchun eng samarali yo‘llarni aniqlaydi. Statik marshrutlardan farqli o‘laroq avariya ob-havo yoki yo‘l yopilishlariga moslashadi. Har bir smena uchun eng maqbul yo‘nalishni belgilaydi.

Transport vositalari kamroq masofa bosib o‘tadi. Kamroq yoqilg‘i sarflaydi va ko‘proq yetkazib berishlarni o‘z vaqtida amalga oshiradi. AI marshrut rejalashtirish logistika xarajatlarini 23% ga kamaytiradi. Bo‘sh yurishlar va bekor turish vaqtini kamaytiradi. Transport parkidan foydalanish samaradorligini oshiradi. Chiqindilarni kamaytirib ekologik barqarorlikni qo‘llab-quvvatlaydi. Tezroq yetkazib berish mijozlar qoniqishini oshiradi. Posilka yetkazib berish jarayonidagi skanerlash ma’lumotlarni yaratadi. Sun’iy intellekt analitika platformalari katta hajmdagi kuzatuv ma’lumotlarini jamlaydi. Real vaqt rejimida tahlil qiladi. Har bir posilkaning qayerdaligi haqida to‘liq nazorat beradi. Murakkab posilka kuzatuvi odatiy bo‘lmagan holatlarni aniqlaydi. Posilka tranzitda uzoq qolib ketganini sezadi. Xodimlarga muammoni oldindan hal qilish imkonini beradi. Trend tahlili takrorlanib turadigan muammolarni ko‘rsatadi. Muayyan saralash markazi kechikishlarga sabab bo‘lsa jarayonni optimallashtiradi. Mijozlar uchun aniqroq yetkazib berish muddatlarini prognoz qiladi. Jo‘natma holati bo‘yicha tezkor bildirishnomalar yuboradi. Yetkazib berish tajribasini yaxshilaydi. Xom ma’lumotlarni amaliy tavsiyalarga aylantiradi. Kechikishlarni kamaytirib mijozlar bilan shaffof muloqot qiladi. Qoniqish darajasi oshadi. Muvaffaqiyatsiz yetkazib berishlar kamayadi. Muammolar tezroq hal qilinadi. Xizmat sifati elektron tijorat gigantlariga moslashadi.

Pochta tashkilotlari sun’iy intellekt va bulut texnologiyalariga o‘tish orqali IT byudjetining 80% xarajatlarini kamaytiradi. O‘zbekistonda raqamli transformatsiya xizmat sifatini yaxshilaydi. Logistika xarajatlari 23% ga pasayadi. Ekologik barqarorlik ta’minlanadi. Mijozlar sodiqligi oshadi. Bozor raqobatbardoshligi mustahkamlanadi. “Raqamli O‘zbekiston-2030” dasturi doirasida pochta tizimi modernizatsiya qilinmoqda. Jo‘natmalar soni 50% ko‘paygan. Daromadlar 1,4 baravarga oshgan. Avtomatlashtirilgan kuzatuv yetkazib berish muddatlarini qisqartiradi. Eski tizimlarning texnik xizmat xarajati yiliga 40 ming dollarga yetadi. AI marshrutlash yoqilg‘i sarfini 15-25% ga kamaytiradi. Yetkazib berishlar 20-30% tezlashtiriladi. O‘zbekiston Pochtasi UPU reytingida 93-o‘rinni egallagan. Raqamli saralash markazlari ochilmoqda. Elektron tijorat mahsulotlari 1600 bo‘limmada topshiriladi. Yevropa tiklanish banki mablag‘lari jalb qilinadi. IT infratuzilmasi monitoring tizimlari trafikni boshqaradi. Virtualizatsiya server resurslarini optimallashtiradi. Pochta xizmatlari

ISSN 3030-3907

raqamlashtirilishi operatsion mukammallikni oshiradi. Gibrid pochta xizmatlari internetga chiqish imkoniyati bo‘lmaganlar uchun ishlaydi. Avtomatik to‘lov tizimlari integratsiyasi xizmatlarni yaxshilaydi. Elektron tijorat platformalari tezkor to‘lovlarga asoslanadi. Zamonaviy axborot texnologiyalari infratuzilmasi tarkibiy qismlari samaradorlikni ta’minlaydi. Raqamli ekotizim yaratish muammolari bartaraf etiladi. Sun’iy intellekt yo‘nalishlarni optimallashtirishda real vaqt rejimida moslashadi. Milliy pochta operatorlari transformatsiyasi zarur. Ushbu yechimlar O‘zbekiston pochta xizmatlarini global standartlarga yetkazadi[5].

XULOSA VA TAKLIFLAR.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4921-son qarori asosida amalga oshirilayotgan islohotlar milliy pochta operatori faoliyatini tubdan yangilash uchun mustahkam huquqiy zamin yaratdi. Shunga asosan, Pochta aloqasi tizimini raqamli transformatsiya qilishning bosqichlari va samaradorlik ko‘rsatkichlari 2-rasmda keltirib o‘tilgan.

Raqamli transformatsiya zaruriyati: Eski tizimlarning texnik xizmat xarajatlari yuqoriligi va ularning moslashuvchanligi pastligi milliy operatorning raqobatbardoshligiga to‘sqinlik qiladi. Sun’iy intellekt va bulutli texnologiyalarga o‘tish IT-budjetining samaradorligini oshirib, operatsion xarajatlarni kamaytiradi.

↓

Logistika samaradorligi: Sun’iy intellekt asosidagi marshrut optimallashtirish logistika xarajatlarini 23% gacha kamaytirish va yetkazib berish tezligini 30% gacha oshirish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, elektron tijorat hajmi ortib borayotgan sharoitda o‘ta muhimdir.

↓

Mijozlar ishonchi va shaffoflik: Avtomatlashtirilgan kuzatuv tizimlari va real vaqt rejimidagi bildirishnomalar mijozlar qoniqish darajasini oshiradi. Ma’lumotlar tahlili orqali yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan kechikishlarni oldindan bashorat qilish va bartaraf etish imkoniyati bo‘ladi.

↓

Ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat: Pochtani bank va davlat xizmatlari bilan integratsiyalashuvi, ayniqsa chekka hududlarda aholi turmush darajasini oshirishda muhim strategik vositaga aylandi.

2-rasm. Pochta aloqasi tizimini raqamli transformatsiya qilishning bosqichlari va samaradorlik ko‘rsatkichlari.

2-rasmdan kelib chiqib, sohani yanada rivojlantirish bo‘yicha quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

ISSN 3030-3907

Intellektual logistika tizimini joriy etish: Yuk tashish transportlari uchun real vaqt rejimida yo‘l harakati, ob-havo va posilkalar hajmini hisobga oluvchi sun’iy intellekt algoritmlarini tatbiq etish. Bu yoqilg‘i sarfini 15-25% ga tejash imkonini beradi.

Ma’lumotlar markazini modernizatsiya qilish: Virtualizatsiya texnologiyalarini kengaytirish va server resurslarini optimallashtirish orqali tizim nosozliklari va “pik” yuklamalar davridagi uzilishlarni bartaraf etish.

Ekotizim integratsiyasi: “O‘zbekiston pochtasi” AJ platformasini mahalliy va xalqaro elektron savdo maydonchalari bilan API interfeyslari orqali to‘liq integratsiya qilish.

Inson kapitalini rivojlantirish: Pochta xodimlarini raqamli savodxonlik va mijozlar bilan ishlashning zamonaviy standartlari bo‘yicha qayta tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish.

Gibrid pochta va Pochtamatlar tarmog‘ini kengaytirish: Yetkazib berishning “so‘nggi milya” bosqichida tannarxni pasaytirish va mijozlarga qulaylik yaratish uchun avtomatlashtirilgan pochtamatlar sonini kamida 2 baravarga oshirish.

Moliyaviy-iqtisodiy faoliyat va raqobatbardoshlik tahlili natijalariga ko‘ra, xizmatlar assortimentini kengaytirish kompaniyalar samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Bu quyidagi asosiy yo‘nalishlar orqali amalga oshiriladi:

1. Diversifikatsiya: xizmatlar spektrini kengaytirish orqali kompaniya yangi mijoz segmentlarini jalb qiladi, xizmatlar portfelini muvozanatlashtiradi va bozor o‘zgarishlariga nisbatan barqarorlikni oshiradi.

2. Mijozlar qoniqishini oshirish: xizmatlar turlarining ko‘pligi iste’molchilarning turli ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi, bu esa ularning sodiqligini mustahkamlaydi.

3. Raqobatbardoshlikni kuchaytirish: keng xizmatlar assortimenti kompaniyaga raqobatchilardan farqlanish va barqaror ustunlikka ega bo‘lish imkonini beradi.

4. Daromadni oshirish: yangi xizmatlarni joriy etish va mavjud xizmatlarni kengaytirish orqali daromad bazasi kengayadi va kompaniyaning iqtisodiy samaradorligi ortadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 14-dekabrdagi “Pochta aloqasi xizmatlarini ko‘rsatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4921-son Qarori.
2. Xudoyberdiyev R.F., Jo‘rayev L.N. “O‘zbekiston pochtasi” AJ faoliyatida raqamli transformatsiya: zamonaviy trendlar va innovatsion yechimlar.

ISSN 3030-3907

“Zamonaviy ilm-fanning dolzarb muammolari va ularning yechimlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy “RAQAMLI IQTISODIYOT” ILMIY-ELEKTRON JURNALI | 14-SON | 2026 amaliy konferensiya maqola va tezislar to‘plami. Farg‘ona 2025-yil 20-21-iyun. - B.251-253.

3. Boneva, M. Challenges related to the digital transformation of business companies. In: Proceedings of the 6th International Conference on Innovation Management, Entrepreneurship and Sustainability (IMES 2018), May 31 – June 1, 2018, Prague, Czech Republic, pp. 101–114.

4. Jaag, C., Parra Moyano, J., & Trinkner, U. Postal strategies in a digital age. In: Crew, M., & Brennan, T. J. (Eds.), The Future of the Postal Sector in a Digital World, 2016, pp. 103–120.

5. Mamatqulov G.R. “O‘zbekiston Respublikasi pochta aloqasi korxonalarini raqamlashtirish istiqbollari”// Raqamli iqtisodiyot, ilmiy-elektron jurnali. №1-son 2022. -B.174-182.

6. Jo‘rayev L.N., Mamatqulov G‘.R., Xudoyberdiyev R.F. “Zamonaviy pochta aloqasi” o‘quv qo‘llanma. Toshkent, Aloqachi-2017.

7. European Commission, Postal services, 2018, Available at: https://ec.europa.eu/growth/sectors/postal-services_en.

8. Mária Matúšková, Lucia Madleňáková, The Impact of the Electronic Services to the Universal Postal Services, 16th Conference on Reliability and Statistics in Transportation and Communication, RelStat’2016, 19-22 October, 2016, Riga, Latvia, Procedia Engineering 178, 2017, pp. 258–266.

9. Daniel Nieto Corredera, Universal Postal Union, Electronic Postal Services Programme, Measuring E-Services Development Version 2.0, Published October 2015

10. Anna Otsetova Digital Transformation of Postal Operators – Challenges and Perspectives. Transport and Communications, 2019; Vol. II. DOI: 10.26552/tac.C.2019.2.4

11. https://uz.post/uz (O‘zbekiston pochtasi AJ rasmiy sayti)